IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 24. Issue 02. Noyabr ,2026

O'ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI BOSH VA QO'L SOMATIK FRAZEOLOGIK BIRLIKLARINING QIYOSIY TAHLILI

Seytjanova Rayxan Salamatovna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq
davlat universiteti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24072595

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi somatik frazeologik birliklar qiyosiy jihatdan tahlil qilingan. Tahlil jarayonida tarkibida "qo'l" va "bosh" somatizmlari ishtirok etgan iboralarning ma'nolari, o'zaro o'xshash jihatlari hamda semantik farqlari o'rganilgan.
Kalit so'zlar: frazeologiya, frazeologik birlik, somatizm, somatik frazeologizm, o'zbek tili, qoraqalpoq tili, qiyosiy tahlil, ko'chma ma'no, leksik-semantik xususiyatlar, obrazlilik.

Аннотация:В данной статье проводится сравнительный анализ соматических фразеологических единиц узбекского и каракалпакского языков. В процессе исследования рассматриваются значения фразеологизмов, содержащих соматизмы «рука» и «голова», выявляются их сходства и семантические различия.
Ключевые слова: фразеология, фразеологическая единица, соматизм, соматический фразеологизм, узбекский язык, каракалпакский язык, сравнительный анализ, переносное значение, лексико-семантические особенности, образность.

Annotation: This article presents a comparative analysis of somatic phraseological units in the Uzbek and Karakalpak languages. The study examines the meanings of idioms containing the somatic components "hand" and "head," identifying their similarities and semantic differences.
Keywords: phraseology, phraseological unit, somatism, somatic phraseological unit, Uzbek language, Karakalpak language, comparative analysis, figurative meaning, lexical-semantic features, imagery.

Frazeologiya — tilshunoslikning til tarkibidagi frazeologik birliklarni o'rganuvchi bo'limidir. M. T. Irisqulovning "Tilshunoslikka kirish" o'quv qo'llanmasida frazeologik birliklar tilning tayyor holda mavjud bo'lgan, barqaror ma'no ifodalovchi birliklari sifatida izohlanadi. Ular ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topib, nutqda tayyor shaklda qo'llanishi bilan erkin so'z birikmalaridan farq qiladi. Frazeologik birliklarning umumiy ma'nosi ko'pincha tarkibidagi alohida so'zlarning ma'nosidan farq qiladi. Bunday birliklar tilning obrazliligi va ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.(3.124)

O'zbek tilshunosligida frazeologik birliklarning shakllanishi, semantik xususiyatlari va nutqdagi vazifalarini o'rganishga katta e'tibor qaratilgan. Jumladan, A. Mamatovning "O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari" nomli tadqiqotida o'zbek frazeologiyasiga oid masalalar yoritilgan. Shuningdek, o'zbek tilshunosligida frazeologik birliklarning struktur, semantik va uslubiy xususiyatlari turli ilmiy ishlarda o'rganilgan.(4)

Qoraqalpoq tilidagi frazeologik birliklarni o‘rganishda ham lug‘atlar va ilmiy tadqiqotlar muhim o‘rin tutadi. Jiyenbay Eshbayevning “Qaraqalpaq tiliniń qısqasha frazeologiyalıq sózligi” asari qoraqalpoq tilidagi iboralarni o‘rganishga xizmat qiluvchi manbalardan biridir.(6) Shoira Ilhomovna Toliyevaning “Qoraqalpoq tilidagi ayrim frazeologizmlarning semantik tahlili” nomli maqolasida esa qoraqalpoq tilidagi frazeologizmlarning ma’no xususiyatlari va mavzuviy guruhlari tahlil qilingan.(5)

O‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi somatik frazeologik birliklarni qiyosiy o‘rganish ularning semantik o‘xshashliklari va farqlarini aniqlash imkonini beradi. Shu jihatdan ushbu maqolada tarkibida “qo‘l” va “bosh” komponentlari qatnashgan iboralar tanlab olinib, ularning har ikki tildagi ma’nolari, mazmuniy yaqinligi va o‘ziga xos semantik xususiyatlari tahlil qilinadi.

“Qo‘li tegmadi” — “Qolı bos emes”

“Qo‘li tegmadi” iborasi kishining juda bandligi sababli biror ishni bajarishga vaqt topa olmasligini anglatadi. Qoraqalpoq tilidagi “qolı bos emes” birikmasi ham ishlarning ko‘pligi va bo‘sh vaqtning yo‘qligini ifodalaydi. Har ikki iborada qo‘l (qol) komponenti insonning mehnat faoliyati va bandligi bilan bog‘langan.

Misol: Tura qol, bolam, sening ham bosh-ko’zlaringni yuvib qo’yay! Kunduzi qo’lim tegmaydi. (Oydin “ Do’ndiqdan ham yosh ekan”)

Mısal: Muǵallimniń qolı bos emes, ol sabaqqa tayarlanıp atır.

“Qo‘li bormadi” — “Qolı barmadı”

Kishining biror ishni bajarishga ko‘ngli bo‘lmasligi yoki jur’at etolmasligi o‘zbek tilidagi “qo‘li bormadi” iborasi orqali ifodalanadi. Uning qoraqalpoq tilidagi muqobili “qolı barmadı” ham qo‘rquv, istaksizlik yoki ichki kechinmalar tufayli harakatni bajara olmaslik ma’nosini anglatadi. Demak, ikkala tilda ham insonning ruhiy holati qo‘l harakati orqali obrazli ifodalangan.

Misol: Qisqasi, endi unga xat yozishga qo’lim bormadi. (A.Muxtor. “Xayri”)

Mısal: Onın' kishkene balanı urıwǵa qolı barmadı.

“Qo‘liga qaramoq” — “Qolına qaradı”

Moddiy jihatdan boshqa kishiga qaram bo‘lish o‘zbek tilidagi “qo‘liga qaramoq” iborasining asosiy ma’nosidir. Qoraqalpoq tilida qo‘llanadigan “qolına qaradı” iborasi ham birovga muhtoj bo‘lish, undan yordam kutish yoki uning mablag‘iga bog‘liq yashashni bildiradi. Ikkala iborada ham qo‘l komponenti yordam va moddiy ta’minot tushunchalari bilan aloqador.

Misol: - Axir xonimlarning qo’llariga qaraydigan bo’lsak, tashnalikdan bag’rimiz kabob bo’lib ketadi... (H.Nazir “Oltin qadah”)

Mısal: Jas shańaraq ata-anasınıń qolına qarap jasadı.

“Qo‘lini sovuq suvga urdirmaslik” — “Qolın suwıq suwg‘a urg’izbadı”

Jismoniy mehnatdan ozod qilish, kishini og‘ir yumushlarga jalb etmaslik mazmuni “qo‘lini sovuq suvga urdirmaslik” iborasida mujassam. Qoraqalpoq tilidagi “qolın suwıq suwg‘a urg‘ızbadı” iborasi ham insonni avaylash, erkalatish va mehnat qildirmaslik ma’nolarini ifodalaydi. Ushbu iboralarda sovuq suvga qo‘l urish mehnatning ramziy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Misol: Bukchayib qolgan qaynataning qo’lini sovuq suvga urdiqmadi. (Sh. Toshmatov. “Erk qushi”)

Mısal: Ájesi nemeresiniń qolın suwıq suwg'a urg'izbadı.

“Qo‘li qo‘liga tegmaydi” — “Qolı qolına tiymedi”

Tinimsiz mehnat qilish va ish bilan nihoyatda band bo‘lish holati o‘zbek tilidagi “qo‘li qo‘liga tegmaydi” iborasi orqali tasvirlanadi. Qoraqalpoq tilidagi “qolı qolına tiymedi” iborasi ham ishlarning ko‘pligi sababli tinimsiz harakat qilishni anglatadi. Har ikki tilda qo‘lning harakati orqali insonning bandligi va mehnat jarayoni obrazli tarzda ifodalangan.

Misol: Qurbon otaning qo’li qo’liga tegmas edi. U yordam so’rab ikki marta direktorga ariza berdi. (A.Qahhor. “Qo’shchinor chiroqlari”)

Mısal: Toyǵa tayarlıq waqtında anamnıń qolı qolına tiymedi.

“Boshi ko‘kka yetmoq” — “Bası aspang‘a jetti”

Kuchli quvonch va cheksiz xursandchilik o‘zbek tilidagi “boshi ko‘kka yetmoq” iborasida aks etadi. Qoraqalpoq tilidagi “bası aspang‘a jetti” iborasi ham kishining juda qattiq quvonganini bildiradi. Bu ikki iborada ko‘k va osmon obrazlari orqali quvonchning yuqori darajasi ifodalangan bo‘lib, ularning mazmuni va obrazli asosida o‘xshashlik mavjud.

Misol: Yo’qlab elibsan, boshim ko’kka yetdi**.** (A.Muxtor. “Opa-singillar”)

Mısal: Qızı universitetke oqıwǵa kirgenin esitip, anasınıń bası aspang'a jetti.

“Boshi toshdan” — “Bası tastan”

Hayot qiyinchiliklariga bardosh berish, sabrli va matonatli bo‘lish o‘zbek tilidagi “boshi toshdan” iborasining mazmunini tashkil etadi. Qoraqalpoq tilidagi “bası tastan” birligi ham chidamlilik, sabr-toqat va mustahkamlikni ifodalaydi. Toshning qattiqligi har ikki tilda insonning qiyinchiliklarga bardosh bera olish xususiyatiga ko‘chirilgan.

Misol: Boshi toshdan bo’lsa, axir bir kun topilib qolar. (N.Maqsudiy. “Bola yo’qotgan kishi”)

Mısal: Bası tastan bolǵan bul hayal hesh qanday qıyınshılıqtan qorıqpadı.

“Boshiga suv quymoq” — “Basına suw quydı”

Biror kishining obro‘siga putur yetkazish yoki uning ishini barbod qilish o‘zbek tilidagi “boshiga suv quymoq” iborasiga xos ma’no sifatida keltirilgan. Qoraqalpoq tilidagi “basına suw quydı” iborasi esa berilgan izohga ko‘ra, yo‘q qilish, tugatish yoki barbod etish mazmunini anglatadi. Ikkala iborada ham suv quyish harakati ko‘chma ma’noda qo‘llangan. Biroq ularning ma’nolari to‘liq mos kelmasligi, ayrim semantik farqlarga ega ekanligi kuzatiladi.

Misol: Ota-bobom xonzodalar avlodi bo'la turib axir boshimga suv quydi.
(S. Ayniy. “Qullar”)

Mısal: A'kesi bergen bir million aqshanın' basına suw quydı

“Boshidan kechirmoq” — “Basınan keshirdi”

Insonning o‘z hayotida muayyan voqea-hodisalarni boshdan o‘tkazishi o‘zbek tilidagi “boshidan kechirmoq” iborasi bilan ifodalanadi. Qoraqalpoq tilidagi “basınan keshirdi” iborasi

ham kishining hayotida biror voqea yoki holatni boshdan o‘tkazganini anglatadi. Bosh (bas) komponentining inson hayoti va tajribasi bilan bog‘liq holda qo‘llanishi ushbu frazeologik birliklarning mazmuniy yaqinligini ta’minlaydi.

Misol: Boshimdan kechirganlarimni sizga qisqacha aytib beray. (N Maqsudiy “Bola yo'qotgan kishi”)

Mısal: Ol ómirinde talay qıyınshılıqlardı basınan keshirdi.

“Boshi garang bo‘lib qoldi” — “Bası g‘awladı”

Sarosimaga tushish, gangib qolish va qanday yo‘l tutishni bilmaslik “boshi garang bo‘lib qoldi” iborasining asosiy mazmunini tashkil etadi. Qoraqalpoq tilidagi “bası g‘awladı” iborasi ham fikrlarning chalkashishi, esankirash yoki nima qilishni bilmay qolish holatini ifodalaydi. Har ikki iborada bosh (bas) insonning fikrlashi va ruhiy holati bilan bog‘langan bo‘lib, ular ma’no jihatidan o‘zaro yaqin hisoblanadi.

Misol: Eng qiyini- odamlarga ma'qul tushadigan gap topib aytish kerak. Boshim garang bo'lib qoldi. **(**I. Rahim.” Hilola”)

Mısal: Kútpegen xabardı esitip, onıń bası g'awladı.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi bosh va qo‘l komponentli frazeologik birliklar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu iboralar nafaqat inson harakatlarini, balki uning fikri, kayfiyati va munosabatlarini ham ifodalaydi. Ularning ma’no va qo‘llanishidagi o‘xshashliklar ikki tilning yaqinligini, farqli jihatlari esa har bir tilning o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. “O’zbek tilining frazeologik lug’ati” Sh.Rahmatullayev
2. “Qoraqalpaq tilining frazeologizmler so’zligi” Q.Paxratdinov
3. “Tilshunoslikka kirish” M.T.Irisqulov
4. “O’zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari” A.Mamatov
5. “Qaraqalpoq tilidagi ayrim frazeologizmlarning semantik tahlili” Sh.Toliyeva (maqola)
6. “Qaraqalpaq tiliniń qısqasha frazeologiyalıq sózligi” Jiyenbay Eshbayev